

Ustoz va murabbiylarga bag'ishlandi



01.10.2022

Ustoz va murabbiylarga bag'ishlandi

Shu kunlarga bizga saboq bergan, hayot so'qmoqlaridan odimlab borishimizda ustozlik qilgan va bu vazifani ayni paytda sharaf bilan bajarib kelayotgan insonlarni kasb bayramlari bilan tabriklashga oshiqamiz. Albatta, har birimiz istalgan sohada mehnat qilmaylik, ustoz va murabbiylarga ehtiyoj sezamiz. Avvaliga maktabgacha ta'lif muassasasi, keyin maktab, navbatli bilan oliy o'quv yurtida ustozlardan saboq olamiz.



Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti faol talabalari erta tongdan ustozlarni bino oldida kutib olishdi. Ustozlarni tabriklash uchun aynan shu fakultetda tahsil olib bugungi kunda turli tashkilotlar, xususan "Kadastr agentligining Respublika aerogeodeziya" markazi rahbari Akmal Omonov, "O'rmonloyiha" instituti derektori R.Abdurimov, Respublika jangchi faxriylari va urush va nogironlari birlashmasi raisi o'rribbosari Bekmurod Raxmatillaev va O'zbekiston xalq yozuvchisi Toxir Malikni shogirdi shoir Xasan Ziyolar ustozlarni tabriklash uchun tashrif buyurishdi.



Ular "Yerdan foydalanish" kafedrasi dotsenti A.Babajanov va shu kafedra katta o'qituvchisi S.Sharipovlarni "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi xizmatlari uchun medali bilan mukofotlashdi. Shu kabi mukofotlar bilan fakultetning bir qator professor-o'qituvchilarni ham tabriklashdi. Xalqimizning ustoz otangdek ulug', degan purhikmat naqlida ham o'qituvchi va murabbiylarga bo'lgan samimiy ehtirom namoyon.



Bu bayram, avvalo, o'zining bilim va tajribasi, iste'dod va mahorati, insoniy fazilatlarini, ko'z nuri va qalb qo'ri, butun borlig'ini ayamasdan, ma'rifat yo'lida beminnat xizmat qiladigan ustoz va murabbiylarimizga nisbatan xalqimizning azaliy hurmat-ehtiromining yaqqol namunasidir. Biz ham barcha ustoz va murabbiylarimizni 1 oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimizdan muborakbody etamiz. Yosh avlodga ziyo nurini taratishdan aslo charchamang, deymiz.



YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti